

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

“UMUMIY TARIX” KAFEDRASI

Tarix fakulteti III kurs tolibi

Xodjamiyrov O'tkirning

KURS ISHI

Mavzu: Ilk o'rta asrlarda Ustrushona

Qabul qildi:

t.f.n.dots.A.Xolmurodov

Topshirdi:

Xodjamiyrov O'

Jizzax – 2012

Mavzu: Ilk o'rta asrlarda Ustrushona

Reja:

Kirish

I-BOB: USTRUSHONADA RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA SIYOSIY VA IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOT

- 1.1.Ustrushonaning rivojlangan O`rta asrlardagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixi
- 1.2.Ustrushona vohasi o`troq va ko`chmanchi xalqlar o`rtasidagi moddiy-madaniy
va ijtimoiy aloqalarni bog`lovchi makon
- 1.3.Ustrushonaning tarixshunosligiga doir ma`lumotlar

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

Kirish

Keyingi yillarda o'tkazilgan qidiruv, qazuv tadqiqotlari natijasida O'rta Osiyo arxealogiyasi fani olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan kashfiyotlar, jahon xalqlari tarixida takrorlanmas saxifalar ochuvchi yangi, qimmatli ma'lumotlar, qadimgi davr madaniyati, amaliy san'ati, me'morchiligi, xunarmandchiligiga mansub nodir topilmalar osoru atiqalar bilan yanada boyildi. Bu esa O'rta Osiyo hududida inson istiqomati va ishlab chiqarish faoliyati bir necha ming yillardan buyon qaror topganligi, bu muqaddas qadamjoy dunyo sivilizatsiyasining asosiy va eng qadimgi madaniyat markazlaridan biri bo'lganligini yana bir bor e'tirof etadi.

Lekin bu muvaffaqiyatlar katta geografik mintaqani qamrab oluvchi O'rta Osiyo xususan, O'zbekiston arxealogiyasi fanida barcha muammolar izchillik bilan xal etilgan degan ma'noni bildirishga asos bo'lolmaydi.

Arxealogiya fanidagi shunday kamchilik muammolardan biri O'rta Osiyo tarixiy-madaniy o'lkalari, vohalari tarixini arxealogik nuqtai-nazardan o'rganish rejasidagi qarama-qarshilik va tengsizlikdir. Bunday salbiy voqelik faqat katta-katta madaniy vohalar o'rtasida, balki bir voha tasarufida joylashgan turli mavzelar o'rtasida ham sodir bo'ldi va ayrim hollarda hanuzga qadar davom etmoqda.

Agar hozirgi kunda O'rta Osiyoning arxealogik xaritasiga nazar tashlagudek bo'lsa haqiqatdan ham qadimgi madaniy o'lkalar tarixini muntazam o'rganilishi darajasi qayerda qay tariqa borayotganligini yetakchi o'rinni egallovchi vohalarni "qoloq" viloyatlarni va albatta xaritadagi "ochilmagan ko'rik"larni ko'rish mumkin.

Yaqin yillarga qadar, shunday arxealogik tadqiqotlar o'tkazish va o'rganish mezonlaridan chetda qolgan regional qatoriga qadimgi Ustrushona davlatning shimoliy, shimoliy g'arbiy qismi aniqrog'i hozirgi O'zbekiston Respublikasining Sirdaryo Jizzax viloyatlari xududidagi tarixiy madaniy vohalar ham kirar edi. Takidlashimiz joizki hozirgi Sirdaryo va Jizzax hududiy jihatdan jumhuriyatagi

eng kichik viloyatlardandir. Qolaversa bu viloyatlarning kattagina qismini qadimgi “qush uchsa qanoti, odam yursa oyog`I kuyadi” ndeb naql qilingan Mirzacho`l egallaydi. Shu sababli bo`lsa kerak bu o`lkaning qadim tarixi, arxeologiyasi katta bir davr mobaynida mutaxassislar diqqat e`tiboridan chetda qolgan.

Aslida esa o`tmishda Ustrushona davlati tarkibiga kirgan bu hududlar Turonj zaminining qadim va o`rta asr tarixida muhim o`rin egallagan faol ishtirok etgan bir bo`lagi, ajralmas qismidir. Mirzacho`l, xususan Jizzax vohasini turli yo`nalishdagi karvon yo`llari kesib o`tgan va bu yo`llar o`rta asrlarda “Movarounnahrning ulkan savdo badargohi” deb nomlangan Samarqand- Shosh, Sharqiy turkiston, Xo`jjand, Farg`ona Yettisuv va Xitoy bilan bog`lab turgan. Savdo karvonlari faoliyatida Sirdaryo bo`yi va Mirzacho`l dashtlarida istiqomat qiluvchi ko`chmanchi chorvador qabilalar ham muhim o`rin tutgan. Ko`chmanchi xalqlardan biri bo`lgan qudratli “guz” yoki “uguz”lar haqida arab ezma manbalarida ko`plab ma`lumotlar uchraydi.

Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining tog` va tog` oldi mavzelari qadimdan aholi zich joylashgan madaniy o`lkalar qatoriga kirgan. Ko`plab chashma, buloq, soy va daryolar havzasida hosil bo`lgan katta kichik bu vohalarda palmakorlikdan tashqari suniy sug`orish tizimlariga asoslangan dehqonchilik va o`troq hayot ancha qadimdan boshlangan. Bu xildagi aholi zich joylashgan madaniy vohalarga o`rta asr Ustrushonasi tarkibiga kirgan Sabat rustakini, Zominsuvatrofidagi Zomin sarsanda o`lkasini Sangzor daryosi xavzasidagi Xarkana, Feknon viloyatlarini misol qilib ko`rsatish mumkin.

Qadimgi Ustrushonaning bu o`lkalarida keyingi O`n yil ichida o`tkazilgan arxealogiya qazuv- tadqiqotlari meyor doirasi ancha kengaydi. Jumladan, Xarkana rustokining ilk o`rta asr yodgorliklari Qing`irtepa, Almantepa, Jalmantepa Lapaktepa nushkent Xavos Sag`anaktepa I-II, Eski Xavos, Oqtepa, Qultepa O`rta Osiyoning IX-XII asrlardagi tog`-kon metalurgiyasi makonlaridan biri, Turkiston tizmalarining sharq iy qismida joylashgan Mik qal`asi ochib

o`rganildi. Tadqiqotlar o`tkazilgan yodgorliklar geografik jihatdan –tekislik dasht, tog` oldi va tog` mavzelarda joylashgan. Bu esa Ustrushonaning mazkur hududlarida muqim istiqomat qiluvchi qadimgi aholining ilk tarqalish davri jarayonlarini o`shish dinamikasini xayot va xo`jalik faoliyatini muntazam, komplekstadqiq etishning boshlanishiga ayniqsa ashyoviy dalillarni yozma manbalar malumotlari bilan solishtirib moddiy madaniyat topilmalarini qo`shni So`g`d, Choch, Farg`ona regionlari topilmalari bilan taqqoslab o`rganishga imkoniyat yaratdi. Lekin bu izlanishlar ko`lamini Ustrushonaning janubiy, sharqiy qismida, aniqrog`I hozirgi Tojikiston Qirg`iziston Respublikalari qarashli hududlarda o`tkazilgan tadqiqotlar va ko`pga kiritilgan ilmiy natijalar ko`lami bilan solishtirganda ancha salbiy tafovut borligini ko`rish mumkin.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, mazkur nomzodlik ishi shimoli g`arbiy Ustrushonaning Sangzor daryosi quyi oqimnida joylashgan Jizzax vohasi arxeologiya yodgorliklarida o`tkazilgan qazuv-tadqiqotlarning dastlabki natijalari ilmiy xulosalari deb ifodalamoq lozim. Mazkur ish qadimgi Ustrushona davlatiga tegishli moddiy- madaniytarixni o`rganilmagan qismidagi bo`shliqni yangi, ilk bor elov qilinayotgan ashyoviy ma`lumotlar n bilan to`ldiradi.

Qayd etilgan va o`rganilgan yodgorliklarning aksariyati O`rta Osiyo xalqlarining ma`lum bosqichi IV-V asrlarda shakillanib VI-VIII asrlarda rivojlangan ilk feodal munosabatlar davrida mansubdir. Shimoli-g`arbiy Ustrushonaxududlarini va xususan Jizzax vohasini muhim, o`troq xayot tarzida o`tgan ko`chmanchi xalqlar tomonidan ommaviy o`zlashtirilishi xuddi shu davrlarga to`g`ri keladi. Shu sababli mazkur regionning ilk o`rta asr davriga oib yodgorliklarni o`rganish arxeologiya fani uchun o`troqlashgan xalqlarning ilk tarixi moddiy madaniyati haqida o`ta muhim va qiziqarli ma`lumotlarni beradi.

I-BOB: USTRUSHONADA RIVOJLANGAN O`RTA ASRLARDA SIYOSIY VA IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOT

1.1.Ustrushonaning rivojlangan O`rta asrlardagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixi

Antiq davri uzoq davom etgan jimjitlikdan so`ng Ustrushona haqidagi dastlabki ma`lumotlar ilk o`rta asrlarga (VI-VII) taluqli xitoy yilnomalarida Sudyshana, Shuayduana, Sudushina, Szebuyueyuyna, Sharqiy Sao, Sudulishina, Sao, arab, fors manbalarida: Surushona, Sutrushona. Osrushona, Surushna, Oshrusena, Ustrushana, Ustrushane, Ushrusona, Istarafshan tarzida uchraydi. Tarix fanida mazkur atamalarning eng maqbuli Ustrushona nomi qabul qilingan.¹

Ustrushona davlati tabiiy-geografik hamda strategik jihatdan joylashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Arab geograflari va Xitoy mualliflarining Ustrushona va uning chegarasiga doir ma`lumotlari asosan IX-X asrlarga taalluqli bo`lib, davlatning VII-VIII asrlardagi chegarasidan deyarli farq qilmagan. Agar bugungi kun ma`muriy xaritasiga nisbatan olinsa, unda Ustrushona tarkibiga Tojikiston Respublikasi Sug`d (avvalgi Leninobod) viloyatining Ayniy, Matchin, Shahrison, O`ratepa, Nou tumanlari, O`zbekiston Respublikasining Jizzax (Fag`non), Xavas, G`allaorol (Xarakana), Zomin, Qirg`iziston Respublikasining Laylak tumanlari va janubdan Turkiston tog` tizmalari bilan chegaralangan hududlarni o`z ichiga olgan.²

Yuqoridagi matnda keltirilgan Szebudana transkripsiyasi A.T. Malyavkinning fikricha Sharqiy sao haqidagi malumotlarga tasodifan tushib qolgan. Bundan tashqari Tan saroyida sharqiy saoni Layviy yani O`rta podsholikni qudratini tan olib bo`ysingan davlat deb ham atashgan.

V.V.Bartoldning fikricha, Ustrushonaning eng qadimgi nomi Sutrushona shaklida bo`lgan. Hozirgi paytda o`rta asrdagi arab manbalariga asoslanib Ustrushona nomi qabul qilingan.

¹ N.N.Negmatov. Ustrushana v drevnosti i rannem srednevekov`ye, Stalinabad, 1957, 15-str.

² O`sha joyda.

Darhaqiqat, Ustrushona haqidagi batafsil ma'lumotlarni arab yozma manbalaridan topish mumkin. Bu manbalardagi berilgan izohlarga ko'ra Ustrushona davlati hududi g'arb sharq yo'nalishida Xo'janddan, Samarqandgacha shimol janub yo'nalishi bo'yicha Sirdaryo Mirzacho'ldan Xisor tog'tizmalarigacha bo'lgan hududni o'z ichiga olgan.

X asrda yashab o'tgan arab sayyohi va tarixchisi Istaxriyning yozishicha "Ustrushonaning katta qismini tog'lar egallaydi unda kemalar suza oladigan daryolar va ko'llar yo'q. Muallif Ustrushona chegaralari va shaharlari to'g'risida batafsil xabar berib yozadi. Ustrushona sarhadlari Mag'ribda Samarqand bilan, Mashriqda Farg'ona bilan, Shimolda shosh, Sag'aniyon shuman Bashjird va Rasht madaniy vohalari bilan chegaralanadi. Ustrushona shaharlari –Arsbanikat, Kurkat, Gazak, Vag'ket, Sabat, Zomin, Dizak, Nujkat, Xarkana bo'lib, davlat rahbarlari ushbu shaharlarda yashagan. Xuddi shu shaharlarni Ibn Xavkal (X asr) ham sanab o'tadi va ularni katta –katta rustoklarni (tuman) markaziy shahri bo'lgan deb Istaxriy malumotlariga qo'shimcha kiritadi. Ibn Xavkalning takidlashicha, tog' mavzellarida joylashgan rustoklarda shaharlar bo'lmagan.

Ustrushona tarixi va arxealogiyasi bo'yicha mutaxassis taniqli olim N.Negmaton fikricha Ustrushonaning tekislik qismidagi rustoklar Bunika, Sabat Zomin, Xarkana, Burnmand Xavos, Shavkat, Fag'kat, Feknon (bosh shahri Dizak), deb atalgan tog'li bo'lsa, qismidagi rustoklar Mink, Asbanikart, Biskar, Bangam, Vakar, Shagar, Maschon, Burgar va Buttam deb nomlangan. Ibn xavkalning yozishicha Ustrushona Movarounnahrning boshqa viloyatlari singari bog' va poliz ekinlarining ko'pligi va turli-tumanligi bilan shuhrat qozongan. Bu qishloq xo'jalik nematlari chet o'lkalarga, qo'shni shaharlarga xususan ko'proq Xo'jjandga olib borib sotilgan. Ustrushona shaharlarining ko'pchiligida bozorlar va har doim faoliyatda bo'lgan yarmarkalar tashkil qilingan. Yarmarkalarda uzoq ellardan ko'plab sotuvchi va oluvchilar qatnashgan. Lekin Ustrushonaliklarning asosiy g'ururi Mink rustoki va Maremond shaharlarida tayyorlanadigan temir

qurol aslahalarda edi. Aytishlaricha bu qurol aslahalar bilan deyarli butun Xuroson va Bog`doddan Iroqqacha bo`lgan jangchilar qurollanishgan.³

Ustrushonaning bosh shahri Bunjkat xisoblanadi. Istaxriy va ibn Xavkalning ma`lumotiga ko`ra shahar atrof` (aylanas I Farsaxga yaqin bo`lgan. Uylar va boshqa imoratlar paxsa, xomg`ish va yog`ochdan qurilgan shaharikki qator xalqasimon mudofaa devori bilan o`ralgan bo`lib uning hududida shoh saroyi qasrlar hovlilar, bog` uzumzorlar shuningdek, jome masjidi va zindon bo`lgan. Shahar ichimlik suvi bilan miqdoridan ham ziyod taminlangan bo`lib, shu suv manbai sifatida ko`plab tegirmonlar ishlab turgan. Bunjkat aholisining 10-20ming nafarini katta yoshli erkaklar tashkil qilgan. Shaharning 4ta darvozasi bo`lib, Ular Zomin darvozasi Marsmand darvozasi Nuikad darvozasi va Kohlabod darvozasi deb nomlangan. Hozirgi paytdagi tarixchi va arxealog olimlar tomonidan isbot qilinishicha Tojikiston mamuriyatiga qarashli O`ratepa shahrining shahriston qishlog`idagi Qalai-qahqaha ishahar xarobalari Ustrushonadavlati bosh kenti Bunjkatning aynan o`zidir.⁴

Ustrushona davlatida kattaligi jihatdan ikkinchi o`rinda turadigan shahar-Zomindir. Zomin shu nomli rustokning bosh shahri bo`lib, u Farg`ona bilan sug`dni bog`lovchi katta karvon yo`li yoqasida tog` oldi mavzeyi joylashgan. Bu shaharni yana Srsanda yoki Susanda deb ham nomlashgan. Yoqut esa uni o`z esdaliklarida Sabaa deb han ataydi. Ibn Xavkal Zominga kelgan paytda eski shahar xarobaga aylanganbo`lib, bozorlar va jome masqidi Sarsaandaga ko`chirilgan ekan. Shunga qaramay Zominda ko`plab sayyohlar va savdogarlar to`xtashgan, ular asosan arab va ajam mamlakatlaridan, shuningdek Sug`d va Farg`onadan turli xil molu matoxlar olib kelishgan. Zominda suv, bog`, uzumzor, bug`doyzor va chorva mollari ko`p bo`lgan. Yer haydab ekin ekish bo`yicha Zomin Ustrushona davlatida yetakchi o`rinni egallagan⁵.

³ A.A..Gritsina. Arxeologicheskiye pamyatniki Sirdarbinskiy oblasti. T., «Fan», 1992, 15-22 str.

⁴ A.A.Gritsina. Umtrushanskiye byli. T., 2002, 70-76 str.

⁵ Drevniy Zaamin. T., «Fan», 1994, 82-84 str.

Dizak kattaligi jihatdan Ustrushonada uchinchi shahar bo'lgani ehtimoldan holi emas. Chunki yozma manbalarda u har doim Bunjikat va Zomindan keyin tilga olinadi. Dizak shahri Feknon rustokining bosh shahri bo'lib u So'g'd va Shosh madaniy mintaqalarini bog'lovchi shimoliy karvon yo'li yoqasida, cho'llik ko'chmanchi chorvador o'g'iz qabilalari bilan chegara zonasida joylashgan. Muqaddasiyning yozishicha, shaharda aholi zich joylashgan uning havosi toza suvi xushtam bog' va ekinzorlar ko'p bo'lgan Dizakliklar ayniqsa mun va tivitdan kiyim-kechak tikishga, gilam to'qishga va namat bosishga nihoyatda usta bo'lishgan.⁶

IX-X asrlarda Dizak shahri muhim harbiy strategik ahamiyatga ega bo'lgan. Dizakni bu davrda ko'chmanchi cho'lliklarni talonchilik yurishlariga qarshi zarba beruvchi islom lashkarlari G'oziyar to'planadigan qarorgohga aylangan. Shu sababli Feknon rustokida va Dizak atrofida ko'plab rabotlar va -X mudofaa istexkomlari qurilgan. Bu qurilishlarda va xarbiy yurishlarda nafaqat Ustrushonaliklar balki Samarqandliklar ham faol ishtirok etishgan. Chunki ko'chmanchilarning talonchilik yurishlari Samarqand shahri va uning kentlariga faqat ikki yo'nalish Dizak-temir darvoza va Nurota tog'lari orqali davom ettiradi shu sababli chegara mavzelari mudofaasining mustaxkamlanishidan ular ham manfaatdor bo'lishgan. Umuman bu davrda Dizak rabotlarining ovozi, shuxrati uzoq yillarga qadar ma'lum bo'lgan. Shunday memorchilik osori atiqalaridan biri IX asrning birinchi choragida Dizakdan I farsa uzoqlikda Ustrushona hukmdori Qovusning o'g'li Haydar say-harakati bilab bunyod etilgan Xudaysar rabodidir. Xudaysar Movarounnahrning eng ko'rkam katta va mashhur ravodlaridan biri xisoblangan. Ibn Xaqalning malumotiga ko'ra Xudaysardan yaxshiroq rabod xatto Samarqand rabotlari orasida ham yo'qdir.⁷

⁶ Ubaydullayev I.H. Fag'non rustoqining IX-X asrlar tarixiga oid ayrim mulohazalar. // O'zbekiston tarixining dolzarb muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida. Samarqand, 2010, 73-75-betlar.

⁷ M.H.Pardayev, S.S.Suyunov, A.H.Pardayev. Shimoliy-g'arbiy Ustrushonada sug'orma dehqonchilik xo'jaligining paydo bo'lishi va taraqqiyot bosqichlari. // U.M.M.T. 30-nashr, Samarqand, 1999, 234.

1.2. Ustrushona vohasi o`troq va ko`chmanchi xalqlar o`rtasidagi moddiy madaniy va ijtimoiy aloqalarni bog`lovchi makon.

O`rta asrlar O`rta Osiyoning ikki xil madaniyati turmush tarziga mansub o`troq dehqon va chorvador ko`chmanchi xalqlarning moddiy madaniy xususiyatlarini yanada yaqinlashuvi, etnik jihatdan aralashuvning kuchayganligi ijtimoiy-iqtisodiy jabxalarda o`zaro tasir doirasini kengaytgan bilan xarakterlanadi. Aslida bu jarayonlarning boshlang`ich nuqtasi biz o`rganayotgan davrdan ancha ilgari eramizdan avvalgi ming yillikning oxirgi asrida Sirdaryoning quyi va o`rta oqimi xavzasida vujudga kelgan o`ziga xos cho`l madaniyati muqaddimasi bilan bog`liqdir. Keyingi davrlarda O`rta Osiyoning o`troq vohalariga kuchli tasir ko`rsatgan bu madaniyatni P.M. Lenina geografik jihatdan uch qisimga ajratadi.

1. quyi Sirdaryoning chap sohilida, uning eski o`zaki Kuvandaryo havzasida joylashgan Jeti Osor madaniyat o`chog`i

2. Jeti –Osorning janubi sharqida Sirdaryoning chap qirg`og`ida joylashgan. Qoratog`ning shimoliy tizimlari bilan chegaralangan. O`troq Qoratog` madaniyati o`chog`i.

3. Toshkent vohasi Angren chirchiq Keled xavzasidan Qurama tog`I tizmalarigacha shimoli sharqdan Pekem, Chotqol yuqori talasgacha bo`lgan katta bir hududiy lirkda tashkil topgan Qovunchi madaniyati o`chog`i.

Uning takidlashicha ushbu 3ta madaniyat o`chog`I qayd etilgan kulopik mahsulotlari umumiy jihatlari bo`yicha bir-biridan farq qilmaydi. Buning asosiy sababi, Sirdaryo bo`yi va uni havzasidagi cho`l dasht mavzellarini fizik-geografik xususiyatlari birligi, buning oqibatida yuzaga kelgan xo`jalik yuritish xayot tarzining o`xshashligidir.

Muallif, “Qovunchi” va “O`troq Qoratog`” madaniyati rivojini uchdavriy bosqichga bo`ladi. Birinchi –yangi eraning boshidan III asrning oxiri yoki IV asr boshigacha ikkinchi eramizning IV-V asrlari; uchinchi –eramizning VI asridan VIII asri boshigacha bo`lgan davrlar Qovunchi madaniyatining uchinchi bosqichi

uchun Sug`dning Toshkent vohasiga ko`rsatgan moddiy manaviy aks tasiri xarakterlidir. Sug`dning bu tasiri memorchilikni bazi bir tarkibiy qisimlarida terrakota qolip bilan tushiriladigan naqshlar va oz darajada qo`pollik maxsulotlarida (metall idishlarga taqlid qilib yasalgan kosagul va ekalogiyalardan tashqari) o`z ifodasini topadi.

P.M. Pevinaning izoh berishicha Jeti Osor madaniyati o`z shakillanishi va rivojlanishida asosan ikki bosqichni eramizning I-III asrlari bilan, ikkinchi bosqichi IV-VIII asrlar bilan davrlanadi. Jeti Osor birinchi bosqichda O`rta Sirdaryo bo`yi madaniyatini kuchli tasirini ostida qoladi. ikkinchi bosqichda esa aksincha o`rta Sirdaryo bo`yi madaniyati Jeti –Osor madaniyati ta`sirini o`zida sinab ko`rdi. Bu jarayonni muallif jeti osorliklarni Sirdaryoni yuqori oqimi tomon siljigani Toshkent vohasi qo`pollik maxsulotlarida yangi shakilli idishlarni dafn inshootlarida xar xillikni paydo bo`lishi bilan bog`laydi. Uning fikricha bu aholi qatlami o`troqlashgan va qovunchi madaniyatiga mansub xalqlar bilan aralashib, qo`shilib ketgan.

Aynan ushbu masala bo`yicha fikr bildirgan M.I. Filanovich O`rta Sirdaryo bo`yi moddiy-madaniyatdagi sifat o`zgarishlari Jeti-Osor tarkibiy qismlaridan avvalroq paydo bo`lganini takidlab, bu voqelik Sirdaryo regionini tarixi saxnasida paydo bo`lgan xioniy kidoriy eftaliy qabilalar bilan bog`liq ehtimoli borligini aytadi.

A. Askarov va B. Axmedovlarning fikricha bu davrda O`rta Osiyo xalqlarining etnik shakillanishiga ham muhim chizgilar qilindi. Tarixiy manbalarga ko`ra shimoli sharqdan Yuechjlarning janubi g`arbga yurishi Inson baktريا davlatini ag`darilishida muhim ro`l o`ynagan bo`lsa ko`chmanchilarning katta bir qabila ittifoqi O`rta Osiyoning shimoli qismlari negizidan yarim o`troq va yarim ko`chmanchi kang davlatini barpo etishda (bu milloddan avvalgi III-II asrlar) ishtirok etishgan. Mualliflarning takidlaganlaridek O`rta Osiyo ikki daryo oralig`i (irqi) dastlab Sirdaryoning o`rta xavzasi rayonlarida yani Toshkent vohasi va Janubiy Qozog`istonda aniq bir antropologik tip bo`lib tarkib topgan paytda

shu mavzelarda “Qovunchi madaniyati” shakillangan. Bu madaniyatning ijodkorlari Kang davlati aholisi kangarlar bo`lsa ajab emas. Chunki turkiy zabon xalqlarning Movarounnahr va Xorazmning ichki hududlariga yoyilishi ana shu madaniyat izlari bilan bog`liqligi kuzatilmoqda.

Ma`lumki, yangi eraning III-IV asrlarida cho`l xalqlarining “buyuk ko`chish davri” boshlanadi. Vabuning natijasida O`rta Osiyoning katta hududiy birliklariga yangi aholi turkumlari kirib kelgan va ommaviy tarzda o`troqlashgan. Shuningdek, bu danrda Szin sulolaviy yilnomasining xabariga ko`ra Kangiy o`z markaziy qarorgohini Sirdayo sohiliudan janubga Sug`dga ko`chirgan “buyuk ko`chish” Kangiy qarorgohi joyini janubga o`zgartirilishi vaqti tarix sanasida kidariy xioniy eftaliylarni shaydo bo`lgan vaqt bilan hamda O`rta Sirdaryo xalqlari madaniyatini qo`shni regionallarga tasirdoirasini kuchayganligi bilan dearli bir vaqtda sodir bo`lgan.jarayonlardir. bu esa mazkurelat va qabilalarni etnik tarkibi qon qardoshlik urug`doshlik iplari bilan bog`langanligi ehtimoli borligini bildiradi.

Darhaqiqat, arxealogik materiallarni taxlili ham milodiy II-III asrlardan boshlab “Qovunchi madaniyati “ning tasiri dastlab chegaradosh Ustrushona va Farg`ona vodiysiga keyinroq Sug`dning markaziy rayonlariga tarqalganligini ko`rsatadi. MilodiyIV-V asrlarda esa “Qovunchi madaniyati”ga tegishli moddiy madaniy namunalari Buxoro vohasida Qashqadaryoda xatto Surxandaryo yodgorliklarida ko`plab uchraydi. IV-V asrlarda Buxoro vohasining shimoli g`arbiy mavzeylarida bu o`lkaning qadimgi an`anaviy madaniy merosidan tubdab farq qiluvchi “ Qonunchi madaniyati”ga o`xshash yangi arxealogik madaniyat tarkib topdi. Bu arxealogiyada “Qizilkir madaniyati “nomi bilan qayd etildi⁸.

Ushbu tarixiy jarayonlar biz tadqiq etasyotgan Sangzor vodiysida bu davrlarda qanday kechdi? Malumki, xo`jaligi va turmush tarzi Sangzor suv manbai asosidagi o`troq dehqonchilikka asoslangan Ustrushonaning shimoli-g`arbiy sarhadlarini tasarrufiga olgan Jizzax vohasining geografik o`rni chorvador

⁸ A.Asqarov. O`zbekiston tarixi. T., “O`qituvchi”, 1994, 16-bet.

xalqlar bilan eng yaqin kontakt mavzeini talqin qiladi. Muhim o`troq xayot bir muncha keng qaror topgan keyingi davrlarda ham Xasr mualiflari bu hududlarni “chegara manzeyi” deb atashgani bejiz emas. Darhaqiqat, vodiyni shimol, shimoli-g`arb va sharq tomondan cho`l dunyosi vaqiflari ko`chmanchi kabilar janubdan Molguzar, g`arbdan Nurota tizmalari o`rab turganini xisobga olsak, Jizzax vohasi ko`chmanchilar uchun eng qulay, beminnat aloqa makoni bo`lib xizmat qilishi mumkin edi.

Arxealogik tadqiqotlarni ko`rsatishicha chunxalik bu imkoniyatdan to`la darajada foydalangan. Shuningdek Jizzax vohasi qadimdan Sug`d uchun muhim xarbiy strategik ahamiyatga ega bo`lgan sharqiy darvoza vazifasini o`tagan. Vohani usahbu xususiyatlarini to`la anglagan Ya Gulamov haqli ravishda etirof etganidek “shosh va Frg`ona “ cho`plaridan So`g`dga talonchilik yurishlarini amalga oshirgan ko`chmanchilar faqat 2yo`l orqali Jizzax Ilono`tti darasi bilan Zarafshon vohasiga Jizzax Nurota orqali Buxoro va Karmanaga chiqishgan.

Biz o`tkazgan arxealogik qidiruv natijalariga ko`ra Jizzax vohasi orqali yana bir yo`l mavjud bo`lgan. Bu yo`l Ravot qishlog`I Kolguzar tog`I kichik darasi orqali o`tgan va tog`ning sharqiy yon bag`ir vohasini uning g`arbiy yon bag`ir vohasini (Sangzorni o`rta oqimi) bilan bog`lagan. Takidlashimiz joizki, mazkur yo`l bilan Ravotsoy vaKo`rpasoy xavzalarida ko`chmanchilarga tegishli mozorqo`g`onlar qayd qilindi.

Biz yuqorida tilga olgan “Qizilkir madaniyati” sohiblari O`rta Sirdaryo bo`yida Jizzaax orqali o`tadigan yo`l Jizzax Nurota Buxoro yo`nalishida tarqalgan degan fikrdamiz. Shuningdek, Jizzax vohasining shimoli-g`arbiy sarqadlari orqali o`tgan, rivojlangan o`rta asrlarda juda serqatnov bo`lib, Buxoroni Nurota orqali Toshkent va o`tror bilan bog`lagan tranzit karvon yo`li negizida ham ilk o`rta asr yodgorliklari yotadi. Bu yo`lni tadqiq qilgan N.B. Namsiyeva fikricha o`rta asrlarda Nurota tog`ining shimoliy va bag`ri bo`ylab o`tgan yo`l Tuzkon yo`li atrofida keskin shimoli sharqqa burilishi va masofani ancha qisqartirgan holda sirdaryo sohiliga chiqqan. Muallif tomonidan tuzilganyodgorliklar xaritasi

Dunyotepa Qoratepa kabi ilk o`rta asr obidalari bizni shunday fikrlashimizga turtki beradi. Demak mutaxassislar tomonidan to`la etirof etilgan ko`chmanchilarning So`g`dga tasiri avvalo Jizzax vohasi orqali amalga oshirilgan. Qizilkir moddiy madaniyatini asosiy xususiyatlarini belgilovchi burama shohli qo`chqor xaykalchalari quvursimon tana ustiga o`rnatilgan kosa shaklidagi isiriqdonlar bizni ixtiyorimizdagi shimoli –g`arbiy Ustrushonaning shu xildagi ashyolari bilan aynan muqoyasaviy va davriy taxlilga kirishadi. Bu omil Jizzax Qizilkir madaniyatlarini bir manbadab turtki olganini va bir davrda tarqaganini yorqin nishionasidir.

Tadqiqotlarimizga ko`ra ko`chmanchi cho`l madaniyatini Jizzax vohasiga tasiri umumiy aloqa mezonlari va moddiy madaniy almashuvlarni davriy jihatdan ikki bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich eramizning IV-VI asrlari bilan belgilansada uning negizida ancha qadimgi o`ziga xos maxaliy madaniyat asoslari yotadi. Havos va Zomin yodgorliklarida qayd etilgan arxaik va ilk antiq davr qatlamlari. Qaliyatepa strategrfiyasi bergan eramizdan avvalgi II-I asr materilllari bizni shunday mushohada qilishga undaydi. Lekin, ushbu tadqiqotlar taxliliga ko`ra shimoli-g`arbiy Ustrushona aholisi O`rta Osiyo xalqlarining barcha tarixiy voqeligi jarayonlarida qatnashgan va unga daxldor bo`lgan. Bunga shimoli – g`arbiy Ustrushona tarixi moddiy- madaniyati rivoji bosqichlari bilan O`rta Osiyoning boshqa madaniy mintaqalari madaniyati bosqichlari o`rtasidagi davriy xamoxanglik va munoisiblik xususiyatlari shohidlik beradi. Aleksandr Makedonskiy boshchiligidagi yunon bosqichlariga munosib qarshilik ko`rsatgan Ustrushonaliklar tarixning keyingi bosqichlaridagi Yunon –Bakteriya Kushon davlatlari tarkibidan chetda qoldi. Bu ham Ustrushonani xususan keyingi davrlar madanoyati uchun ma`lum manodagi o`ziga xoslikni saqlab qolgan. Eramizning III –IV asrlarida bevosita va bilvosita cho`l madaniyati aholisini kutib olgan shimoli –g`arbiy Ustrushonaliklar ehtimol o`rta osiyo xalqlarining IV-VI asrlardagi turli harakat ko`chishlarida ishtirok etishgan. Bu jarayonlarning barchasi Sangzor vodiysida o`troq dehqonlar va ko`chmanchi chorvadorlarning

chambarchas bog'liqligi asosida muayyan o'ziga xos madaniyat namunasi vujudga keldi: bu o'rinda shimoli-g'arbiy Ustrushona madaniyati ahvoli ushbu davrdagi Farg'ona vodiysi moddiy- madaniyatiga juda o'xshab ketadi. N.G.Gorbunova takidlaganidek, Farg'onada dehqonlar va chorvadorlar qorishuvidan xosil bo'lgan o'ziga xos madaniyat yuzaga kelgan. Buning oqibatida vodiya ilk o'rta asrlargacha savdoda pul muammosi san'atda qo'pol sanamlardan tashqari, devoriy suratlar, haykallar o'ymakorlik namunalari ham mavjud bo'lmagan. Bu voha O'rta Osiyoning rivojlangano'troq dehqonchilik mintaqalaridan ko'ra Sirdaryo bo'yining dehqon –chorvador xalqlari madaniyatiga yaqin turadi.

2.3. Ustrushonaning tarixshunosligiga doir ma'lumotlar

O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan Jizzax vohasining tog' va tog' oldi mavzolari qadimdan aholisi zich joylashgan tarixiy madaniy o'lkalar tarixiga kirgan. Sangzor va Zominsuv daryolari ko'plab soy va buloqlar xavzasida hosil bo'lgan vodiylarda lalmikorlikdan tashqari suniy sug'orish tizimlariga asoslangan dehqonchilik va o'troq xayot ancha qadimdan boshlangan. Shuningdek, vohaning shimoliy va shimoli-g'arbiy sarxadlarida yasangan cho'l-dasht mavze Mirzacho'lda arxolik va ilk antiq davrdagi ko'chmanchi chorvadorlar faoliyati arxealogik materiallarda o'z aksini topgan. Bu mavzelardan neolit va bronza davri jamoalarning moddiy madaniyat namunalari qayd etilganini xisobga olsak bu mo'jaz tarixiy madaniy o'lkada inson istiqomati va xo'jalik yuritish faoliyati ancha qadimdan yo'lga qo'yilgani tasdiqlash mumkin bo'ladi.

1951 yilda O'zbekiston FA tarix va arxealogiya institutining Ya. G'.G'ulomov rahbarligidan Zarafshon ekspeditsiyasi Jizzax shaxridan 500km shimolda joylashgan Tuzkon va uning atrof xududini arxealogik qidiruv asosida o'rganib chiqadi. Natijada, Tuzkon, Xonchorbog', qolgan sir manzillaridan neolit

davriga oid chaqmoqtoshdan yasalgan tosh qurollar va Bronza davriga taaluqli archasimon to'rsimon naqshli sapol idish parchalari topilgan.⁹

1956 yil mazkur institutning Mohandaryo ekspeditsiyasini vohadagi arxeologiya yodgorliklarini o'rganishishini davom ettirdi va Jizzax shaxridan 30km shimol tomonda, qadimgi ko'chmanchi chorvadorlar bilan chegara cho'l mavzeyida qurilgan, IX-X asrlarda faoliyat ko'rsatgan Qulpisar rabodiva Dunyotepa qal'asaini ochib o'rgandi. Ekspeditsiya rahbari Ya.G'. G'ulomovning yozishicha, "Qulpisar rabodi muhim xarbiy strategik joyda qurilgan. Unda ko'chmanchi qabilalarning talonchilik yurishlariga zarba beruvchi xarbiy kuch jamlangan. Qulpisar so'zi ham shundan kelib chiqqan bo'lib, talonchilar yo'lini yozuvchi "bosh qulf" "asosiy qulf" ma'nosini anglatgan. Xaqiqatdan ham, Qulpisar rabodi Jizzax vohasiga shimoli-g'arb tomondan yo'nalgan yilning boshida joylashganligini xisobga olsak, bu fikrlar haqiqatga yaqindir. Chunki yozma manbalarning ma'lumotiga qaraganda IV-V asrlarda Jizzaxda ko'chmanchilarning talonchilik yurishlariga zarba beruvchi "islom lashkari" "g'oziylar"ning bir qancha qarorgohlari mavjud bo'lgan.

Ekspeditsiya tomonidan aniqlangan Qulpisar Mavzeyidagi qiziqarli topilmalaridan yana biri Dunyotepadan 100-120m chamasi janubiy sharq tomonda joylashgan tosh inshoot-dolmendir. Dolmenning ustki qismi o'rtasi xovuzchasimon botiq tosh bilanyopilgan bo'lib, Ya. G'ulomov fikricha bu yerda qadimgi diniy urf-odatlardan biri, ma'budlar, ajdodlar ruhiga atab qilinadigan qurbonlik marosimi o'tkazilgan. Dunyotepa qal'asining ilk qurilish davri milodiy eraning I-II asrlari bilan sanalangan. Takidlash joizki, maxaliy aholi tomonidan hanuzga qaqdar bu yerda qurbomlik marosimini o'tkazish an'anasi saqlanib qolgan.¹⁰

Ushbu 1956 yilning kuz oylarida mazkur ekspeditsiyaning A.R.Muxammadjonov rahbarligidagi otryadi Jizzax shahrining janub tomonidan joylashgan Morguzar tog'ining sharqiy qismida joylashgan Taqatosh manzilidan

⁹ I.A.Anboyev. Drevnosti golodnoy stepi. // Y.M.M.T. 4-nashr. T., 1963. 55-str.

¹⁰ Ya.G'.G'ulomov. Кладбище кулписар. // U.M.M.T. 2-nashr. T., 1961, 92-96 str.

qoyatoshlarga o'yib chizilgan "suratlar galeriyasi" ni topishga muvofiq bo'ladi. Neolit va Bronza davridan rivojlangan o'rta asrlarigacha bo'lgan uzoq o'tmish bilan sanalangan mazkur qoyatoshsuratlarida turli xayvonlar –oxu, bug'u, arxor, ot, qanlon, it tasvirlari odamlar va ularni olomon bo'lib ov qilishlari diniy ma'rosimlarni o'tkazish manzaralari aks ettirilgan.

1957-59 yillarda Mohandaryo ekspeditsiyasi tarkibida Jizzax vohasi Kanpirak devori tarixini o'rgangan X. Muxammedovning aniqlashicha Sangzorning o'rta oqimi vodiysida joylashgan muayyan, mo'jaz hudud yoysimon shakldagi devor bilan o'rab olingan. Devor Jizzax shahridan 12km masofa janubiy sharq tomonda joylashgan Olmachi qishlog'idagi o'rta asr qishloq makoni Siypanchiq otatepadan boshlangan va ikki yo'nalishi bo'yicha tarmoqlangan. Devorning dastlabki tarmog'i janubiy-sharqqa ayrim mutaxassislar tomonidan Burnamad rustoki sifatida talqin qilinayotgan Ravot qishlog'idagi Qo'rg'ontepaga undan To'rtko'l tepaga qadar qariyb 15 km masofa cho'zilib borgan va bu ko'rpa soy darasining old qismidagi Uchqiztepa borib tutashgan. Voha devorining Siypanchiq tepadan bosh olgan ikkinchi tarmog'i esa dastlab shimol tomonga yo'nalgan va vohaning eng qadimgi vulkan shahar yodgorligi Qaliyatepaning sharq tomonidan o'tib yoysimon shaklda g'arbga burilgan. Devor Qaliyatepadan 8km shimolda joylashgan Xudoysar raboti sifatida talqin qilinayotgan ko'krabot yodgorligining shimoliy sharq tomonidan o'tib butunlay g'arbga yo'nalgan va Jizzaxning o'rta asrlardagi o'rni O'rdaning shimolidan janubga burilib Kuyovboshi qishlog'i orqali Yetimtoqqa borib taqalgan. Bu devorning uzunligi qariyb 50km ga yetgan Devorning davomi tog'ning janubiy yon bag'ridagi Oqtepadan boshlanib Xarakana rustoki (hozirgi G'allarol0sari yo'nalgan.

Keyingi yillarda o'tkazilgan arxeologik qidiruv qazuv tadqiqotlari natijalariga ko'ra Jizzax kanpirak devori V-VIII asrlarda faoliyat ko'rsatgan va bir necha maqsad, vazifalarda undan foydalanilgan. Xususan Jizzaxga va Sug'dning markaziy xududlariga uyushtiriladigan ko'chmanchilarning talonchilik tajovuzlari amalga oshiriladigan ikki asosiy yo'nalish Ilono'tdi (Temir darvoza)

darvoza va ravot orqali Morguzarni ustidan o`tdigan Ko`rpassoy darasi yo`llari yopilgan. Bundan tashqari, devor Jizzax shahri va uning tegrasidagi sug`orma dehqonchilikka asoslangan ziroatkor yerlar bilan cho`l dash hudud o`rtasidagi chegara vazifasini o`tagan. Devor o`ramasi ichida 40 ga yaqin ilk o`rta asrlarga oid turar joy makonlari faoliyat ko`rsatgan. Va albatta Jizzax vohasi devoridan yaqin paykallartini Mirzacho`l tomondan esadigan issiq shamol garseldan muayyan darajada ihota qilish uchun ham foydalangan.

1964 yil M.Aminjonov rahbarligida Samarqand otryadi O`zbekiston arxeologiya yodgorliklari majmuasini tuzish xaritasini yarastish mavzusi bo`yicha Jizzax vohasi Zomin tumani hududida qidiruv ishlarini o`tkazadi. Shuningdek, otryad o`z oldiga Ustrushonaning o`rta asrlardagi Zomin rustaki bosh shahrini o`rmini aniqlashni ham maqsad qilib qo`ygan edi. O`rta asr Zomini sifatida talqin qilingan O`rdatepada qazuv ishlari o`tqazgan M.Aminjonova arxeologik topilmalarga asoslanib O`rdatepa IX-X asrlarda tashlab ketilgan Zomin madinasi bo`lishi mumkinemas, yangi shahar (Sarsanda-M.P) ni Zominsuvning yuqori oqimidan tog`dan chiqish qismida joylashgan to`rtta shahar o`rnidan izlash kerak. –degan fikrni bildiradi. Xududi shu nuqtai nazarni keyinchalik A.Berdimurodov ham qo`llab quvatlaydi.¹¹

Qadimgi Ustrushonaning O`zbekiston qismidagi diqqatga sazovar shovshuvli farazlar, ilmiy qarashlarga sabab bo`lgan G`allarol tumanidagi Shaxidtepa yodgorliklaridir. O`zbekiston SSR madaniyati vazirligining san`atsdhunoslik Instituti olimlari P.I. Rempel va E.V. Rtveladze rahbarligidagi ilmiy guruh ushbu g`alati qurilmaning markaziy shoh qo`g`oni Shahidtepada qazish ishlarini boshlab yuborishadi.

Lekin, qazuv-tadqiqotlari davomida Shaxidtepa va unga aloqador boshqa tepaliklarda madaniy qatlam qoldiqlari uchramaydi va ularni sohta qo`rg`onlar ekanligi ayon bo`ldi.

¹¹ M.Aminjonova. Arxiologicheskaya razvedka v Zaaminskom rayone. // U.M.M.T. 8-nashr, T., «Fan», 1969, 137-142 str.

O'sha paytda bir qancha tarixiy ma'lumotlar va taqqoslashlar asosida bu ulkan g'aroyib inshoot Shaxidtepani san'atshunoslik Professori M.Bulatob qadimgi Sak qabilalari taqvimini dev talqin qilgan uning gipotezasi bo'yicha birinchidan, shoh qo'rg'on Shaxidtepa o'troq sug'diylar va ko'chmanchi saklar uchun birgalikda sig'inadigan va ilmi nujimni o'rganadigan sajdagoh rasadxona ikkinchidan, asosan ko'chmanchi qabilalar orasida zardushtiylik dinini tarqatish uchun ideologiya markazi uchinchidan shaxidtepa kompleksining tashkil etuvchi 365 ta tepa yil xisobi fasllar almashinuvini belgilashda foydalanadigan taqvim kalendar sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Shaxidtepa kompleksi atrofini o'rgangan mutaxassislar mazkur territoriyadagi jarlik qirg'og'ining yer sathidan 5m chuqurlik joyidan mo'zorqo'rg'on katakombasi qoldig'ini va chalgancha yotgan odam suyaklari hamda shamshir topishadi E.V. Rtveladzening fikricha bu tepasiga tuproq uyulmagan laxad go'r bo'lib, u yangi eraning I asriga oiddir.

1970 yillarda Jizzax vohasiga turli mavzu vailmiy maqsadlarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ko'plab ekspeditsiyalar otryadlarning xizmat safarlari uyushtirilgan.

Jumladan, 1973 yil O'zR FA Arxeologiya institutining Sh.S. Toshxo'jayev xabarligidagi otryadi Jizzax dashtining yangi O'zlashtirilayotgan mavzellarida qidiruv ishlari ni o'tkazadi va 31ta ko'hna obida xarobalarini 20ta yaqin mo'zorqo'rg'on o'rmini topib qayd qiladi.

Aynan shu 1973 yil yana bir ilmiy guruh O'zbekiston Madaniyat vazirligiga qarashli San'atshunoslik instituti va Toshkent Davlat Universiteti arxeologiya kafedrasining qo'shma otryadi Jizzax viloyati Zomin tumani xududida qidiruv tadqiqot ishlarini o'tkazadi. Natijada, qadimgi va o'rta asrlar Ustrushonasi tasarufidagi 40 ta arxeologiya yodgorligi o'rganiladi vatadqiqot natijalari bir muncha kechikib yani, 1986 yili ilmiy jamoatchilikka elon qilindi.¹²

¹² N.B.Nemseva, G.Ya.Drevyanskaya. Pamyatniki Zaamina i yego okrug (k arxeologicheskoy karte svernoy Ustrushany) // U.U.M.T. 20-nashr, T., «Fan», 1986, 221-229 str.

Shuningdek mazkur tumanning tog` qismi 1977 yil O`zbekiston san`atshunosligi ekspeditsiyasining sayyor otryadi tomonidan o`rganildi va asosan tog` soylari havzalarida joylashgan 20 ga yaqin qadimgi moddiy madaniyat qoldiqlari o`rni aniqlanadi.

1978 yil O`zbekiston FA Arxealogiyasi institutida viloyat hududida muhim ish olib borish maqsadida Jizzax otryadi tuzildi. E.B Qodirov rahbarligidagi mazkur otryad maxsus mavzu varejaga asoslangan muntazam qazuv ishlarini boshladi. Bu faoliyatning dastlabki natijasi sifatida G`allarol tumani Obiz qishlog`idagi Qing`irtepa qal`asini 20 ga yaqin xonalari ochib o`rganildi va 35 dona tangalar xazinasini topildi. Xazinada turk malikalari tomonidan VIII asrda zarb qilingan tangalarni uchrashi diqqatga sazovardir. Keyinchalik Qing`irtepa yaqinida joylashgan Almantepani yuqorigi va pastki madaniy qatlamlari ya`ni VII-VIII asrlar qal`asini tiroq tishlarisimon yonma-yon joylashgan uzun va tor xonalari ochib o`rganildi.

1987 yilda Instituti qoshida Jizzax viloyatining asosam janubiy, yuqori tog` qismini o`rganuvchi Baxmal otryadi tuzildi. Otryad boshlig`i L.M.Sverchkov bir necha mavsum Zomin qo`riqxonasi xududidagi Miq tosh qal`asida qazuv ishlarini o`tkazdi va bu yerdan o`rta asr metallurklarining temir rudasi eritadigan ko`nalg`alarni topishga muvaffaq bo`ldi.

XULOSA

Ustrushonada, xususan uning g'arbiy viloyati Jizzax vohasi hududida o'tkazilgan arxealogik qazuv tadqiqotlar bo'yicha quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

1. O'rta Osiyuoning bir qancha tarixiy madaniy vohalari kabi Ustrushonada, uning Jizzax vohasida ham qadimdan sug'orma dehqonchilikka asoslangan o'troq xayot qaror topgan. Bunga vohaning tabiiy iqlim sharoiti, qulay geografik joylashuvi sabab bo'lgan.

2. Qazuv tadqiqotlar o'tkazilgan Qaliyatepa shahar yodgorligining 3-rabodi stratigrafik shurf qatlamlari va topilmalari taxlili mil. Avv. II-I asrlardayoq Jizzax shahrining sharqiy qismida shahar xayoti faol ravishda davom etganligini ko'rsatmoqda. Stratigrafik shurf materikgacha (yer sathigacha) yetkazilgani yo'q, ya'ni ilk shahar qurilganligi bo'yicha topilmalar olingani yo'q, Qazuv ishlari davom ettirilsa Qaliyatepa shahrining ilk qurilishi davri aniqlanadi va qadimiylashadi.

3. Mustaqillik yillarda o'tkazilgan arxealogik tadqiqotlarda vohaning sug'orma dehqonchilik mavzelari aniqlandi, irrigatsiya shahobchalarining xususiyatlari o'rganildi, voha dehqonchiligi tarixiga bir qator ilmiy yangiliklar qilindi. Izlanishlarning ko'rsatishicha, vohada shahar madaniyati paydo bo'lgandan so'ng sug'orma dehqonchilik sohasi rivojlanishi kuchaydi.

4. Jizzax vohasi o'troq dehqon aholi bilan ko'chmanchi chorvadorqabilalar o'rtasidagi " retranslyator" mavze hisoblangan. Vohada bu ikki xil turmush tarzidagi aholining madaniyatida umumiy o'xshahslik va o'zaro qorishuv sezilarli darajada kuchli bo'lgan. 2007 yilda G'ulbo mozorqo'g'onlarining ochilishi Jizzax qadim tarixi uchun o'ziga xos ilmiy yangilik bo'ldi.

5. Qiziltepadagi tadqiqotlar esa rivojlangan o'rta asrlarda (IX- XII) "shrq renessansi" davrida Ustrushona, xususan Jizzax vohasi ham rivojlanishning yuksak cho'qqisiga erishganidan, shahar qishloqlarda iqtisodiy va madaniy xayot rivojlanganidan dalolat beradi.

6.Qazuv- tadqiqotlari asosida Ustrushonada va uning Jizzax vohasida shahar xayoti va turmush tarzi O`rta Osiyodagi mavjud qadimgi shahar hamda madaniy vohalar rivojlanishining umumiy qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, maxaliy iqlim sharoiti va geografik omillar asosida, taraqqiyotining O`rta Osiyoga xos yaxlitligining o`zida mujassam qilgan holda yuzaga kelganligi va shakllanganligi isbotlandi.

Jizzax shahrining qadimiyligini isbot talab qilmaydigan haqiqat aksioma sifatida qabul qilish mumkin. So`zsiz shaharning tarixiy yoshi 2000 yildan oshdi. Eng so`ngi rasmiy, tarixiy sanani arxealogiya qazuv ishlarini davom ettirib, qaliyatepa, o`rda, Qo`rg`ontepa kabi shahar yodgorliklarini eng qadimiy qatlamlarini ochib taxlil qilgan holda aniqlash mumkin. Bu esa vohada arxealogiya qazuv-tadqiqotlarini davom ettirishni taqazo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., "O'zbekiston", 1998.
- 2.A.Alibekov, S.Nishonov. Jizzax viloyati. T., "Mehnat", 1978.
- 3.A.A.Asqarov. O'zbekiston tarixi. T., "O'qituvchi", 1994.
- 4.A.R.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi. T., 1994.
- 5.A.A.Gritsina. Ustrushanskiye byli. T., 2002.
- 6.A.A.Gritsina. Arxeologicheskiye pamyatniki Sirdarbinskoy oblasti. T., "Fan", 1992.
- 7.Drevniy Zaamin. T., «Fan», 1994.
8. I.A.Anboyev. Drevnosti golodnoy stepi. // Y.M.M.T. 4-nashr. T., 1963.
- 9.M.Pardayev, S.Suyunov. Sardobalar ko'hna karvon yo'llarini belgilovchi inshoot. // Buyuk Ipak yo'lidagi Markaziy Osiyo shaharlari. Samarqand, 1994.
- 10.M.H.Pardayev. Ustrushona aholisining shaharlashuv tarixiga oid ayrim mulohazalar. // O'zbekiston tarixida Ustrushonaning qadimgi va o'rta asr tarixini o'rganish muammosi. Guliston, 2007.